

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE STYLISTIC AND PRAGMATIC FUNCTION OF TOPONYMS IN DETECTIVE DISCOURSE AND THEIR REPRODUCTION IN TRANSLATION (A CASE STUDY OF AGATHA CHRISTIE'S THE MURDER OF ROGER ACKROYD)

Mashkhura Kobuljonovna Shokhidova*Namangan State University**Senior Lecturer at the Department of English Language and Literature**Science ID: FNM-0726-0132*mashkhurashokhidova@gmail.com*Namangan, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: detective discourse, toponym, translation strategy, literary translation, pragmatic function, stylistic function, Agatha Christie, The Murder of Roger Ackroyd, Komila Nosirova, readers' perception.

Received: 17.07.26**Accepted:** 18.07.26**Published:** 19.07.26

Abstract: This article examines the stylistic and pragmatic functions of toponyms in the detective discourse of Agatha Christie's novel The Murder of Roger Ackroyd and the strategies employed to recreate them in Komila Nosirova's translation. The study identifies the geographical names used in the novel and analyzes their role in plot construction, the creation of narrative space, the guidance of readers' perception, and the development of detective suspense from the perspective of comparative translation studies. The findings reveal that the translation employs such strategies as transliteration, transcription, literal translation, partial adaptation, and explanatory rendering. Although the referential meaning of many toponyms has been preserved, their artistic and pragmatic impact has, in some cases, been weakened. The article argues that, within detective discourse, toponyms function not only as indicators of place but also as significant stylistic devices that shape and direct readers' perception.

DETEKTIV DISKURSDA TOPONIMLARNING STILISTIK-PRAGMATIK FUNKSIYASI VA ULARNING TARJIMADA QAYTA YARATILISHI (AGATA KRISTINING "THE MURDER OF ROGER ACKROYD" ROMANI MISOLIDA)

Mashxura Kobuljonovna Shoxidova*Namangan davlat universiteti,**Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi**Ilmiy identifikatsiya raqami: FNM-0726-0132*

mashkhurashokhidova@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: detektiv diskurs, toponim, tarjima strategiyasi, badiiy tarjima, pragmatik funktsiya, stilistik funktsiya, Agata Kristi, The Murder of Roger Ackroyd, Komila Nosirova, kitobxon idroki.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Agata Kristining "The Murder of Roger Ackroyd" romanidagi toponimlarning detektiv diskursdagi stilistik-pragmatik funktsiyasi hamda ularning Komila Nosirova tarjimasida qayta yaratilish strategiyalari tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida roman matnidagi geografik nomlar ajratib olinib, ularning syujet qurilishi, makon yaratish, kitobxon idrokini boshqarish va detektiv sirni shakllantirishdagi o'rni qiyosiy-tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tahlillar natijasida tarjimada transliteratsiya, transkripsiya, to'liq tarjima, qisman moslashtirish va izohlash strategiyalari qo'llangani aniqlandi. Ayrim hollarda toponimlarning referensial ma'nosi saqlangan bo'lsa-da, ularning badiiy-pragmatik yuklamasi zaiflashgani kuzatildi. Maqolada detektiv diskursda toponimlarning nafaqat makon ko'rsatkichi, balki kitobxon idrokini boshqaruvchi muhim stilistik vosita ekanligi asoslab beriladi.

СТИЛИСТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ТОПОНИМОВ В ДЕТЕКТИВНОМ ДИСКУРСЕ И ИХ ВОССОЗДАНИЕ В ПЕРЕВОДЕ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА АГАТЫ КРИСТИ «УБИЙСТВО РОДЖЕРА ЭКРОЙДА»)

Маишхура Кобулжоновна Шохидова

Наманганский государственный университет,

старший преподаватель кафедры английского языка и литературы

mashkhurashokhidova@gmail.com

Научный идентификационный номер: FNM-0726-0132

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: детективный дискурс, топоним, стратегия перевода, художественный перевод, прагматическая функция, стилистическая функция, Agata Kristi, The Murder of Roger Ackroyd, Комила Носирова, читательское восприятие.

Аннотация: В данной статье исследуются стилистико-прагматические функции топонимов в детективном дискурсе романа Агаты Кристи «Убийство Роджера Экройда» («The Murder of Roger Ackroyd»), а также стратегии их воссоздания в переводе Комилы Носировой. В ходе исследования были выделены географические названия, представленные в тексте романа, и с позиций сравнительного переводоведения проанализирована их роль в построении

сюжета, создании художественного пространства, управлении читательским восприятием и формировании детективной интриги. Результаты анализа показали, что в переводе использованы стратегии транслитерации, транскрипции, полного перевода, частичной адаптации и комментирования. Несмотря на сохранение референциального значения ряда топонимов, в отдельных случаях наблюдается ослабление их художественно-прагматической нагрузки. В статье обосновывается, что в детективном дискурсе топонимы выступают не только показателями пространства, но и важными стилистическими средствами управления читательским восприятием.

Kirish. Badiiy matnda toponimlar faqat geografik makonni ifodalovchi birliklar emas, balki asarning estetik, pragmatik va stilistik tizimini shakllantiruvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, detektiv janrda joy nomlari voqealar rivoji, gumon doirasini cheklash, syujetning ishonchliligini ta'minlash hamda kitobxon idrokini boshqarishda faol ishtirok etadi. Shu sababli detektiv asarlarda toponimlarning tarjimasida oddiy nominativ birlikni ko'chirish emas, balki muallif yaratgan badiiy va pragmatik funksiyalarni maqsadli tilda qayta tiklashni talab etadi.

Agata Kristining "The Murder of Roger Ackroyd" romani klassik detektiv janrining eng mukammal namunalaridan biri bo'lib, unda makon va joy nomlari syujet qurilishi bilan chambarchas bog'langan. Roman voqealarining King's Abbot qishlog'ida kechishi, Fernly Park, Three Boars, The Larches kabi toponimlarning muntazam takrorlanishi kitobxonda yopiq makon taassurotini hosil qilib, jinoyat sirining bosqichma-bosqich ochilishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu birliklarning tarjimada qayta yaratilishi asarning badiiy ta'sirini saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi "The Murder of Roger Ackroyd" romanidagi toponimlarning detektiv diskursdagi stilistik-pragmatik funksiyasini aniqlash hamda ularning Komila Nosirova tarjimasida qayta yaratilish strategiyalarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Toponimlar tarjimasida tarjimashunoslikda eng ko'p tadqiq etilgan onomastik birliklardan biri hisoblanadi. Ilk nazariy yondashuvlarda geografik nomlarning tarjima qilinishi yoki asl shaklda saqlanishi masalasi ekvivalentlik tamoyillari bilan bog'liq holda izohlangan. J.K.Katford tarjimini til birliklarining almashinuvi sifatida talqin qilib, toponimlar ko'pincha to'liq ekvivalentga ega bo'lmagan birliklar ekanligini ta'kidlaydi [1]. P.Nyumark esa

geografik nomlarni tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, semantik tarjima va funksional ekvivalent kabi strategiyalarni tavsiya etib, strategiya tanlovi matn turi hamda kommunikativ vazifaga bogʻliqligini koʻrsatadi [2]. Keyingi tadqiqotlarda eʼtibor toponimlarning madaniy va pragmatik xususiyatlariga qaratildi. J. Franko Aixelá madaniy birliklar tarjimasini tizimlashtirib, geografik nomlarni saqlash, moslashtirish, izohlash va almashtirish kabi usullarni tavsiflaydi [3]. A.Vermes esa toponimlarni tarjima qilishda transkripsiya va tarjima usullarining qoʻllanish sharoitlarini tahlil qilib, joy nomlari faqat referensial emas, balki madaniy axborot tashuvchi birliklar ekanligini asoslaydi [4]. D.Fernandes maxsus nomlar tarjimasini boʻyicha ishlab chiqqan modelida toponimlarning fonetik, semantik va pragmatik transformatsiyalarini tizimlashtirib, tarjimon tanlovining badiiy matn qabuliga taʼsirini koʻrsatadi [5].

Toponimlarning badiiy matndagi uslubiy vazifalari ham bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. M.Beker ularni madaniy birliklar sifatida baholab, tarjimada oʻquvchi uchun tushunarlilik va milliy koloritni saqlash oʻrtasidagi muvozanatni asoslaydi [6]. L.Venuti esa xorijiyalashtirish va mahalliyalashtirish strategiyalari orqali joy nomlarini tarjima qilish masalasini yoritib, tarjimon tanlovi kitobxonning matnini qabul qilish usulini oʻzgartirishini taʼkidlaydi [7]. U.Eko badiiy tarjimada geografik nomlar muallif uslubining tarkibiy elementi boʻlib, ularni nooʻrin moslashtirish asarning estetik taʼsirini zaiflashtirishini qayd etadi [8].

Oʻzbek tarjimashunosligida Gʻ.Salomov, Q.Musayev, I. Tuxtasinov va N.Tuxtaxodjayevalarning tadqiqotlarida badiiy tarjima nazariyasi, milliy kolorit va realiyalar tarjimasini masalalari keng yoritilgan [9–12]. Biroq ushbu ishlarda toponimlarning detektiv diskursdagi stilistik-pragmatik vazifasi hamda ularni tarjima qilish strategiyalari maxsus tadqiq etilmagan. Shuningdek, Agata Kristi ijodi va detektiv poetikasi J. Skaggs, M. Pristman, H. Vortington hamda J.Allan va hammualliflar tomonidan oʻrganilgan boʻlsa-da [13–16], ularning tadqiqotlari asosan janr poetikasi, syujet qurilishi va detektiv narratsiyaga bagʻishlangan. “The Murder of Roger Ackroyd” romanidagi toponimlarning kitobxon idrokini boshqarishdagi stilistik-pragmatik funksiyasi hamda ularning Komila Nosirova tarjimasida qayta yaratilish strategiyalari alohida tadqiq etilmagan. Mazkur maqola aynan shu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy-tarjimashunoslik, tavsifiy, stilistik-pragmatik hamda diskurs tahlili metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida Agata Kristining “The Murder of Roger Ackroyd” romanining ingliz tilidagi asl matni va Komila Nosirova tomonidan amalga oshirilgan oʻzbekcha tarjimasini tanlandi.

Avvalo roman matnidagi barcha toponimlar ajratib olindi va semantik xususiyatlariga koʻra antroponimlardan farqlanib tasniflandi. Keyinchalik ularning tarjima usullari Newmark, Aiksela va Vermes tomonidan tavsiya etilgan tarjima strategiyalari asosida guruhlariga ajratildi. Har bir

toponimning asl matndagi stilistik va pragmatik funksiyasi hamda tarjimada ushbu funksiyaning qay darajada saqlangani qiyosiy tahlil qilindi.

Toponimlarning detektiv diskursdagi vazifasi uch mezon asosida baholandi:

- makonni shakllantirish funksiyasi;
- syujet va detektiv sirni tashkil etishdagi funksiyasi;
- kitobxon idrokini boshqarishdagi pragmatik funksiyasi.

Tahlillar va natijalar. Agata Kristining “The Murder of Roger Ackroyd” romanida toponimlar voqea sodir bo‘ladigan makonni belgilash vazifasigina bajarmaydi. Ular detektiv syujetning tarkibiy qismi sifatida qahramonlarning ijtimoiy mavqei, voqealar geografiyasi, sirning rivojlanishi hamda kitobxon idrokini boshqarishda muhim stilistik-pragmatik yuklama kasb etadi. Komila Nosirova tarjimasida mazkur birliklarni o‘zbek tiliga ko‘chirishda transliteratsiya, semantik tarjima, qisman moslashtirish va funksional almashtirish strategiyalaridan foydalanilgan. Buni quyidagi misollar yaqqol ko‘rsatadi.

1. Summer-house - shiypon. Asl matnda summer-house ingliz bog‘ madaniyatiga xos kichik dam olish inshootini anglatadi. Asl matn: Doctor Sheppard, shall we investigate that summer-house? [17.65] Tarjimada esa u “shiypon” [18.86] deb berilgan. “Summer-house” leksemasining “shiypon” tarzida tarjima qilinishi bir qarashda funksional mos ekvivalentdek tuyuladi. Biroq keyingi kontekstda “u eshikni ochdi”, “ichkarisi deyarli qorong‘i edi” kabi tavsiflar berilishi asl birlikning yopiq bog‘ uychasi ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilidagi shiypon esa odatda atrofi ochiq va eshiksiz inshoot sifatida idrok qilinadi. Natijada tarjimada leksik moslik qisman ta‘minlangan bo‘lsa-da, o‘quvchi ongida makon haqidagi kognitiv model buziladi. Bu esa detektiv diskurs uchun muhim bo‘lgan voqea sodir bo‘ladigan joyning fazoviy tasavvurini to‘liq qayta yaratishga to‘sqinlik qiladi. A.Kristi voqea sodir bo‘ladigan joyni aniq tasvirlaydi: yopiq bog‘ uychasi, qorong‘i, ichkariga kiriladi, eshik ochiladi. Bu detektiv muhit yaratadi. Tarjimon milliy ekvivalent sifatida “shiypon”ni tanlaydi. Bu o‘qilishi tabiiy, ammo madaniy jihatdan boshqa obyektни anglatadi. O‘zbek kitobxonni “shiypon”ni ochiq ayvon sifatida tasavvur qiladi. Keyin “eshikni ochdi” degan jumlanı o‘qiganda, hosil qilgan makon modeli bilan matn tavsifi o‘rtasida ziddiyat paydo bo‘ladi. Natijada muallif yaratgan fazoviy realizm va detektiv atmosfera qisman zaiflashadi.

2. King's Paddock - "Qirollik maysazori" Roman boshidayoq uchraydigan King's Paddock nomi Ferrars xonim istiqomat qiladigan mulk nomidir. King's Paddock. Mrs Ferrars. [17.6] Tarjimada bu nom “Qirollik maysazori” [18.7] shaklida semantik tarjima qilingan. Biroq ingliz tilidagi paddock “yaylov”, “otlar uchun o‘ralgan maydon” yoki tarixan mulk nomlarida qo‘llanadigan toponimik komponent hisoblanadi. Uni “maysazor” deb tarjima qilish natijasida joy nomining tarixiy-toponimik tabiati yo‘qolib, oddiy yashil maydon haqidagi tasavvur yuzaga

keladi. Natijada o'quvchi uni mulk nomidan ko'ra tasviriy ifoda sifatida qabul qiladi. Bu esa detektiv matnda makon identifikatsiyasini biroz zaiflashtiradi.

3.The Larches - "Tilo'g'och" Roman voqealarida muhim rol o'ynaydigan uy nomlaridan biri The Larches hisoblanadi. Asl matn: "The Larches has recently been taken by a stranger".[17.15] Tarjimada u "Tilo'g'och" [18.18] shaklida berilgan. Bu yerda tarjimon inglizcha daraxt nomini o'zbek tilidagi daraxt nomi bilan almashtirgan. Natijada nom tabiiy va o'qilishi qulay ko'rinsa-da, asl matndagi ingliz qishloq landshaftiga xos milliy kolorit sezilarli darajada kamaygan. Shu bilan birga, toponimning asosiy vazifasi — qahramon yashaydigan joyni individual nom bilan ajratib ko'rsatish — saqlab qoling. Shuning uchun ushbu misolda qisman funksional ekvivalentlik kuzatiladi.

4.Three Boars - "Uch to'ng'iz" Asl matnda: "Why is he staying at the Three Boars instead of Fernly Park?" [17.15] Three Boars ingliz mehmonxonalariga xos an'anaviy nom bo'lib, madaniy-realistik birlik sanaladi. Tarjimada u "Uch to'ng'iz" [18.17] deb so'zma-so'z berilgan. Leksik ma'no saqlangan bo'lsa-da, o'zbek kitobxonida bu birlik mehmonxona yoki inn nomidan ko'ra oddiy hayvonlar nomi sifatida qabul qilinishi mumkin. Chunki ingliz madaniyatidagi mehmonxonalarga hayvon nomini berish an'anasi o'zbek madaniyatida keng tarqalmagan. Natijada pragmatik ta'sir susayadi va toponimning madaniy funksiyasi to'liq qayta yaratilmaydi.

5.Fernly Park – "Qirqquloqlar". Roman markazidagi qotillik sodir bo'ladigan asosiy makon Fernly Park [17.24] hisoblanadi. Tarjimada u "Qirqquloqlar" [18.28] shaklida berilgan. Bu tarjima semantik jihatdan bahsli hisoblanadi. Fern o'simlik nomi ("qirqquloq") bo'lsa-da, Fernly aslida individual mulk nomidir. Uni to'liq tarjima qilish natijasida ingliz aristokratik mulkning nomi oddiy o'simlik nomiga aylangan. Natijada o'quvchi ingliz manorining tarixiy va madaniy xususiyatlarini emas, balki o'simlik bilan bog'liq assotsiatsiyani qabul qiladi. Bu esa toponimning stilistik yuklamasini sezilarli darajada kamaytiradi.

6. Marby va Marby Grange.Roman davomida uchraydigan Marby va Marby Grange nomlari tarjimada deyarli transliteratsiya asosida berilgan. Asl matnda: "Where is Marby? [17.82] – Marbi, [18.110] Marby Grange [17.84]- Marbi Grenj [18.111]. Mazkur strategiya toponimning milliy xususiyatini saqlash imkonini bergan. Ayniqsa Grange komponentining transliteratsiya qilinishi asl makonning ingliz muhitiga mansubligini his ettiradi. Bunday yondashuv detektiv syujet uchun muhim bo'lgan geografik aniqlikni saqlaydi hamda kitobxonni sun'iy milliylashtirishdan saqlaydi. Ushbu misollar maqoladagi eng muvaffaqiyatli tarjima yechimlari sifatida baholanishi mumkin.

Xulosalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, detektiv diskursda toponimlar oddiy geografik nom emas, balki makonni modellashtirish, voqealar rivojini mantiqiy bog'lash hamda kitobxon idrokini boshqarishga xizmat qiluvchi stilistik-pragmatik birlik hisoblanadi. Agata Kristi

romanida joy nomlari syujetning ishonchliligini ta'minlash, gumon doirasini shakllantirish va detektiv muhitni yaratishda muhim badiiy funksiyani bajaradi.

Qiyosiy tahlil Komila Nosirova toponimlarni tarjima qilishda transliteratsiya, semantik tarjima, kalkalash va funksional moslashtirish kabi turli strategiyalardan foydalanganini ko'rsatdi. Ayrim hollarda bu tanlovlar muallif uslubini muvaffaqiyatli qayta yaratgan bo'lsa, ayrim misollarda joy nomlarining madaniy va pragmatik yuklamasi qisman yo'qolgan. Natijada o'quvchi ongida asl matnda shakllangan makon modeli va u bilan bog'liq assotsiatsiyalar to'liq tiklanmagan.

Shunday qilib, detektiv asarlarda toponimlarni tarjima qilishda ularning nominativ ma'nosini saqlashning o'zi yetarli emas. Tarjimon joy nomining stilistik-pragmatik funksiyasi, muallif uslubi va o'quvchi idrokiga ko'rsatadigan ta'sirini ham hisobga olishi zarur. Ana shundagina detektiv asarning badiiy ta'siri va muallif yaratgan sirli atmosfera maqsadli tilda imkon qadar to'liq saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p.
2. Newmark P. A Textbook of Translation. – London: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
3. Franco Aixelá J. Culture-Specific Items in Translation // Translation, Power, Subversion. – Clevedon: Multilingual Matters, 1996. – P. 52–78.
4. Vermes A.P. Proper Names in Translation: An Explanatory Attempt // Across Languages and Cultures. – 2003. – Vol. 4, No. 1. – P. 89–108.
5. Fernandes L. Translation of Names in Children's Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play // New Voices in Translation Studies. – 2006. – Vol. 2. – P. 44–57.
6. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. 3rd ed. – London: Routledge, 2018. – 409 p.
7. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. 2nd ed. – London: Routledge, 2008. – 341 p.
8. Eco U. Mouse or Rat? Translation as Negotiation. – London: Weidenfeld & Nicolson, 2003. – 216 p.
9. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
10. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.
11. Tuxtasinov I. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2012.
12. Tuxtaxodjayeva N. Badiiy tarjima va lingvokulturologiya. – Toshkent, 2017.
13. Scaggs J. Crime Fiction. – London: Routledge, 2005. – 176 p.
14. Priestman M. The Cambridge Companion to Crime Fiction. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 269 p.

15. Worthington H. Key Concepts in Crime Fiction. – London: Palgrave Macmillan, 2011. – 240 p.
16. Allan J., Gulddal J., King S., Pepper A. (Eds.). The Routledge Companion to Crime Fiction. – London: Routledge, 2020. – 859 p.
17. Christie A. The Murder of Roger Ackroyd. – London: William Collins Sons & Co., 1926. – 312 p.
18. Kristi A. Rojer Ekroydning sirli qotili / ingliz tilidan K. Nosirova tarj. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2018. – 256 b.
19. CambridgeDictionary.Paddock.URL:<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/paddock> (murojaat qilangan sana: 20.07.2026).